

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM FAKULTETI
Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi yo'nalishi
III-kurs, 101-guruh talabasi

G.To'raqulovanning

**“Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash”
fanidan tayyorlagan**

Kurs loyihasi

**Mavzu: Maktabgacha yoshdagi qiz
bolalar ko'ylagini loyihalash**

**Bajardi:
Qabul qildi:**

G.To'raqulova

Qarshi 2013 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM KAFEDRASI

**“Tasdiqlayman”
“Kasbiy ta'lim” kafedrasi mudiri:**

**“Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash”
fanidan kurs loyihasi uchun**

**Kasb ta'lim (Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi) yo'nalishi
III-kurs, 101-guruh talabasi**

G. To'raqulovaga

Topshiriq

**Kurs loyihasi mavzusi: Maktabgacha yoshdagi qiz
bolalar ko'ylagini loyihalash**

Topshiriq berilgan sana: “ ___ ” _____ 2013 yil.

Ilmiy rahbar: _____

Bajardi: **To'raqulova Guljahon**

Mundarija

Mundarija

Kirish.....
I. Kiyim dizayn – loyihasining nazariy qismi.....
I.1.Zamonaviy moda yo’nalishi (berilgan assortiment bo’yicha).....
I.2.Modellar eskizini ishlab chiqish.....
I.3.Asosiy modelning materialini asoslash.....
II. Kurs loyihasining konstruktorlik qismi.....
II.1.Kiyim asosini ishlab chiqish uchun birlamchi ma’lumotlar.....
II.2.Kiyim asosini qurish.....
II.3.Model konstruktsiyasini ishlab chiqish.....
II.4.Model andozalarini qurish.....
II.5.Model andozalarini materialga joylashtirish.....
III. Kurs loyihasining texnologik qismi.....
III.1.Modelning texnologik ketma-ketligini ishlab chiqish.....
Xulosa.....
Adabiyotlar.....

KIRISH

“Biz o'z iste'dodli, fidoyi, bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak.”
I.A.Karimov.

O'zbekiston tikuvchilik sanoatida keng iste'molchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarilmoqda. Ommaviy ishlab chiqarish bilan bir qatorda yakka buyurtma tikish korxonalarini, kichik va o'rta xususiy korxonalar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirmoqda. Bu sohani rivojlantirishda xizmat qiluvchi mutaxassislarni oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari tayyorlanadi. Ularga maxsus fan sifatida “Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari” fani o'rgatiladi. Kiyimning asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda “Yengil sanoat” sohasi bo'yicha bir qator yangiliklar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida “Birinchi navbatda yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish darkor”. Yengil sanoat sohasi oldida turgan vazifalar chet el korxonalarini bilan shartnoma tuzish va yangi investitsiyalarni olib kirish, zamonaviy usuldagi texnologiyalardan foydalanish, arzon, sifatli, xaridorgir eksport va import talablariga javob bera oladigan mahsulot ishlab chiqarish. Xom-ashyodan tortib toki tayyor mahsulot bo'lgunga qadar bo'lgan operatsiyalarni bitta korxonaning o'zida bajarish, aholini ish bilan ta'minlash, kam vaqt sarflab ko'p mahsulot ishlab chiqarishdan iboratdir.

Loyihalash – bu murakkab ijodiy jarayon bo'lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek, ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan o'lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Detallarning razmeri, soni va shakli ular yig'ilganda xuddi shu razmer va ko'rinishini beradi.

Kiyimlarni loyihalashda gavadan o'lchov olish qoidalari va o'lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so'ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o'rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug'ullanadi. Bular - modalar uyi tikuvchilik korxonalarining eksperimental tsexlari, maxsus loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir.

Kiyimlarni modellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo'llari o'rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo'yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi.

Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo'llari o'rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo'ljallanganligiga qarab, bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Modaning o'zgaruvchanligi va xilma-xilligi dunyo moda olamining yangi ko'rinishlarini ochmoqda. Ayniqsa, bu jarayon milliylik bilan uyg'unlashib, yangicha sharqona go'zallikning o'ta nafis va serjilo ko'rinishlarini kashf etmoqda. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar kiyimlari ham bugungi kunda etak qismi kengaygan, etak qismi toraygan, yengi fonarik, yoqali, yoqasiz, taqilmali, bezakli, qayerga mo'ljallanganiga qarab, kiyishga juda qulayligi, maktabgacha yoshdagi qiz bolalarga chiroy ato qilib, nafis, bejirim ko'ylak sifatida tavsiya etiladi.

Bugungi kunda, bu ko'ylagimizning turli xil fasonlari urf bo'lmoqda. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagimizni modellashtirish orqali hohlagan fasonimizni yaratishimiz mumkin. Masalan: yoqa o'mizini o'zgartirish orqali, engini

kengaytirish yoki har xil fasonda torroq qilish orqali va zamonaviy modaga asoslanib dekarativ bezaklar berish orqali o'zgartiramiz. Bu ko'ylagimiz bog'chaga borganda, uy sharoitida, to'y-tantanalarga borganda eng qulay va chiroyli ko'rinishda bo'ladi.

Loyihaning maqsadi: olingan bilimlar bo'yicha o'z ustida mustaqil ishlash, mustahkamlash, amalda qo'llash.

Loyihaning vazifasi:

- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi modelini asoslash;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi model eskizini ishlab chiqish;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi materialini asoslash.
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi kiyim asosini ishlab chiqarish uchun birlamchi ma'lumotlarni to'plash;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi kiyim asosini qurish va hisoblash;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi model konstruktsiyasini ishlab chiqish;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi model andozalarini tayyorlash;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi model andozalarini tanlangan materialga joylashtirish amalini bajarish;
- maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi modelining texnologik ketma-ketligini ishlab chiqish.

Loyihaning amaliy ahamiyati: Olib borilgan izlanishlar bo'yicha olingan natijalarni qo'llanilishi katta samaradorlikka erishilishiga olib keladi. Ilmiy izlanishlar natijalari aniqlanadi va Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ma'ruzalar qilish bilan tanishtirilib boriladi.

Loyihaning tarkibiy qismi: Loyiha kirish, 3 ta bob, 9 ta bo'lim, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Kiyim – dizayn loyihasining nazariy qismi

1.1. Zamonaviy moda yo'nalishi

Hozirgi kunda O'zbekistonda zamonaviy moda yo'nalishida ko'plab yangiliklar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Har yillik moda haftaliklarida "Style.uz", milliy an'analar bilan yo'g'rilgan milliy-maishiy buyumlar, shu bilan birgalikda milliy liboslar "Bazar Art" yarmarkalarida, "Bolajonlar - shirintoylar" liboslar ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda. O'zbekistonda bu ko'rgazmalarni o'tqazishda asosiy maqsad zamonaviy moda yo'nalishida yangiliklar yaratish va o'z iste'dodlarini ijod namunalarida ya'ni liboslarida namoyon qilishdan iborat. Jumladan, ushbu moda haftaliklarida Italiya, Frantsiya, Braziliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Rossiya, Ispaniya, Kanada va yana boshqa ko'plab davlatlar o'z liboslari kolleksiyasi bilan qatnashmoqda. Zamonaviy moda yo'nalishi milliy liboslar bilan zamonaviy liboslarning uyg'unlashuvini, bejirim liboslar yaratilishiga asos bo'lmoqda.

"Moda" – yangilanish degan ma'noni bildiradi. Moda zerikarli bir xillikdan halos qiladi. Odamlar bir-biriga yoqishni hohlaydi. Chiroyli kiyinsam, yaxshi kiyinsam deydi – bu tabiiy ehtiyoj – deb aytgan Per Karden.

Yangi modalarni rassom-modelerlar yaratadi. Yangi modalarni baholovchilar aholi (insonlar) hisoblanadi. Yangi kirib kelgan moda 6-10 yil, balki undan ko'proq ham yashashi mumkin.

Bu jamiyat bilan birgalikda o'sib boradi, taraqqiy topadi. "Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar kiyimini loyihalash" mavzusidagi kurs loyihasining vazifalari:

- zamonaviy moda yo'nalishi bo'yicha beriladi;
- modellar eskizini yaratish;
- asosiy modelning materialini tanlash va asoslash;
- kiyim bazis asosini ishlab chiqish uchun birinchi ma'lumotlarni to'plash;
- model konstruksiyasini hisoblab chiqish;
- model andazalarini tayyorlash;
- model andazalarini matoga joylashtirish va gazlama sarfini aniqlash;
- modelning texnologik ketma-ketligini ishlab chiqish.

Ma'lum vaqt o'tgach esa so'nadi. Moda yashashga va hayot go'zalligiga qiziqishni orttiradi. Modali kiyimni 3 bosqichda yashaydi, deyish mumkin:

1-bosqich – modaning kirib kelishi;

2-bosqich – modaning rivojlanishi;

3-bosqich – modaning so'nishi.

Modaning kelib chiqishida yoshlar modasi avangard bo'lib hisoblanadi. Yoshlar moda ijodkorlari hisoblanadi. Kattalar modasi bir muncha konservatik bo'lib, yoshlar modasida tasdiqlangan, isbotlangan elementlarni qabul qilib oladi va bir oz oddiy, bosiq, vazmin tarzda o'zida qo'llaydi. Bola modasi esa yosh, sho'x, quvnoq, ko'zga tashlanuvchanlik elementlarini olib, oddiylashtirib, yanada jo'shqin ranglardan foydalanib o'zida aks ettiradi.

Modani shakllantirishda ijtimoiy formatsiya, iqlim, tevarak-atrofdagi tabiat, xalq an'analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika, sportga ommaviy qiziqish, yangi gazlamalar paydo bo'lishi, kosmik davr va turli-tuman omillar ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar kiyimlari hozirgi kunga kelib, turli-tumanligini kuzatishimiz mumkin. Ulardagi o'zgarishlar asosan yoqa o'miziga, englarga hamda har-xil dekarativ bezaklarga qaratiladi.

Kiyim inson tanasini atrof-muhitning har xil nomaqbul ta'sirlaridan, ya'ni issiq, sovuq, nam, chang va boshqa ta'sirlardan asraydigan o'simlik, hayvonot hamda sun'iy materiallardan tayyorlanadigan, shuningdek, bezak vazifasini o'taydigan narsaga aytiladi.

1.2. Modellar eskizini ishlab chiqish

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini loyihalashda quyidagi M-1, M-2, M-3 modellar eskizi ishlab chiqildi.

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi turli-tuman bo'ladi. Kiyimning funksional hususiyatlarini sezilmaydigan qilishga ko'pincha pelerinalar, sharflar, drapirovkalar, turli xil bezaklar yordam beradi. Bashang kiyimlarda cho'ntak bo'lmagani tuzik, yoqalar, taqilmalar dekorativ xarakterda bo'lishi kerak.

Bezaklar kiyimni bezash uchun ishlatiladi. Bezaklarning turli-tuman xillari mavjud. Bezak sifatida ko'proq furnituralardan (tugmalar, piston, zamok, ilgak va hokazolar), hamda bezak gazlamalardan (tasma, to'r, lenta va hokazo) foydalaniladi. Bezakning chiroyli turlaridan biri kashta, applikatsiya hisoblanadi. Bezaklarni ko'proq asosiy yoki bezak gazlamalardan foydalanib ishlanadi. Bularga: burmalar, ryush, volanlar, adiplar, mayda taxlamalar, cho'ntaklar, elkabandlar kiradi.

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi modellarini ishlab chiqishda ko'pincha materiallar birga qo'shib ishlatilib, bunda monandlikka erishish uchun albatta bironta etakchi alomat bo'lishi kerak. Material rangi bir xil emas, fakturalar kontrasti (Malimo) printsipida, faktura bir xil bo'lib, ranglar kontrasti printsiplari va ayni vaqtda faktura bilan rang nisbatlari kontrasti printsipida birga qo'shilishi mumkin. Gazlama rangida yoki kontrast rangda berilgan bezak bahya qator ham kiyimni bezatadi.

1-Model

Bu modelimizdagi ko'ylak etak qismi kengaygan bo'lib, yengi fonarik, bo'yin o'mizi bo'ylab yotadigan yoqa va taqilmasi ko'ylakning orqa bo'lagida joylashgan. Ko'ylakda aylana shaklda koketkalar bor bo'lib, uni paxta tolali gazlamalardan tikish tavsiya qilinadi.

Model chiziqlari quyidagicha kiritiladi. Ko'ylak old va ort asosi qog'ozga tushirib olinadi. Old va ort bo'lak o'rta chiziqlaridan koketkaning uzunligi (8-9 sm) belgilab olinadi. Uning uzunligi ko'p hollarda yelka uzunligiga tenglashtiriladi. Yelka nuqtalaridan pastga yeng o'mizi bo'ylab 3-4 sm qo'yiladi va koketkaning pastki qirqimi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Old va ort bo'lakdagi koketkaning pastki chiziqlari 4 bo'lakka bo'linadi. Bu nuqtalar orqali ko'ylakning etak chizig'i bilan kesishguncha chiziqlar o'tkaziladi. Bu kesish chizig'i hisoblanadi. Koketka qismi qirqib olinadi. Shu chiziqlar orqali etak qismi koketka chizig'iga 0,1-0,3 sm yetmasdan qirqiladi va har bir bo'lak orasi 4-6 sm.ga kengaytiriladi.

2-Model

Bu modelimizdagi ko'ylak etak qismi kengaygan bo'lib, yengi yoqa o'mizidan tushirilgan bo'lib, ko'ylak old va ort bo'lagiga o'langan. Ko'ylakda aylana shaklda yoqalar bor bo'lib, uni paxta tolali gazlamalardan tikish tavsiya qilinadi. Ko'ylak olti bo'lakdan iborat.

3-Model

Bu modeldagi ko'ylagimiz old koketkasi to'rtburchak shaklda yaxlit bichib olingan. Koketka qismi qirqib olinadi. Shu chiziqlar orqali etak qismi koketka chizig'iga 0,1-0,3 sm yetmasdan qirqiladi va har bir bo'lak orasi 4-6 sm.ga kengaytiriladi. Qop qismi etagi kengaytirilgan va taxlamali qilib tikilgan. Ko'ylakda yeng yo'q. Ko'ylak oldini bezak bilan bezatishimiz mumkin.

Mayda taxlamalar — dazmollanmagan va birlashtirilmagan taxlamalar yordamida katta hajmli shakl hosil qilish usulidir. Mayda taxlamali detal qurishda asosiy shartga —vitochkalar kengligi mayda taxlamalarga o'tqazilishiga amal qilinadi. Agar kerakli shaklni hosil qilish uchun vitochkalar kengligi yetmasa, detallar qo'shimcha kengaytiriladi. Ko'ylak detallarida taxlamalar qirqim va koketkalarga nisbatan simmetrik va assimetrik holda joylashishi mumkin. Kiyim tanasida va yubkasida assimetrik holda joylashgan mayda taxlamalar detal shaklini ifodalibroq ko'rsatadi.

1.3. Modelning materialini tanlash va asoslash

Poplin — qayta tarash usulida yigirib pishitilgan ipdan polotno o'rilishida to'qilgan gazlama. Tanda bo'yicha zichligi arqoqnikiga nisbatan ko'proq bo'lgani uchun gazlama sirtida eniga ketgan yo'l-yo'l chiziqlar hosil bo'ladi, yuza zichligi 100—120 g/m², eni 75 sm.

Flizelin kapron va viskoza tolalar aralashmasidan sidirg'a bo'yalgan va melanj tipda ishlab chiqariladi.

Flizelinning qalinligi 0,3-0,9 mm, 1 m gazlamaning massasi 60-180 gr. Flizelin engil, qayishqoq, g'ijimlangandan keyin shaklini yaxshi tiklaydi, kiyimning shaklini yaxshi to'tib turadi, lekin dazmollanmaydi. Shu sababli undan tikilgan buyumlarga shakl berish uchun vitochka va burmalar ko'proq qo'llaniladi. Kirishmasligi va titilmasligi, gigroskopligining yuqoriligi, havo va bug' o'tkazuvchanligi flizelinning qimmatli xossalari. Havo o'tkazish jihatidan u bo'z va bortovkadan ustun turadi. Flizelin bortovkadan 3-4 marta arzon. Nayrit lateks ishlatib tayyorlangan flizelinning kamchiligi quruq kimyoviy tozalashga chidamasligidir: trixloretlen va perxloretlen ta'sirida nayrit lateks eriydi va flizelin emiriladi. Uni faqat uayt-spirit bilan tozalash mumkin.

Tanlangan material haqida ma'lumot

Jadval-1

№	Material nomi	Artikul	10 sm.dagi zichligi		To'qilish	Eni, sm	Og'irligi, gr/m ²
			Arqoq	Tanda			
1.	Poplin		2	5	Polotno	75 sm	100-120 gr/m ²
2.	Flizelen	FH-12 915502	-	-	Noto'qima	100 sm	5 gr/m ²

KONFEKTSION KARTA

Jadval -2

№	Material va furnituraning nomi	Artikul	Namuna
1.	Asosiy material: “Poplin”		
2.	Qotirma material: Flizelin	FH-12	
3.	Bezak toshlar		
4.	Iplar: Paxtalik birlashtirma chok uchun; Ipaklik – ustki baxyaqator uchun;	№50, №60 №40	

II. KURS LOYIHASINING KONSTRUKTORLIK QISMI

2.1. Asos konstruktsiyasini qurish usulini tanlash va asoslash

Loyihachi faoliyatining eng qiyin va ma'suliyatli bosqichlari kiyim detallarining chizmasi yoyilmasini chizishdan iborat. Bu bosqichdan ko'zlangan asosiy maqsad – detallarning shakli va o'lchamini mumkin qadar aniqroq belgilash; shunday qilinsa, kiyimning detallari yig'ilgandan keyin hosil bo'lgan shakli rassom shakliga mos keladi.

Bu ishning qiyinligi, murakkabligi shundaki, faqat ta'rifi, eskizi yoki namunasigina berilgan, lekin o'zi yo'q kiyimning chizmasini – detallari yoyilmasini chizishga to'g'ri keladi. Buning ustiga, kiyimning sirti murakkab, yoyib bo'lmaydigan sirt hisoblanadi; shunga ko'ra uning yoyilmasi va hisobi, ya'ni uni chizish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni hisoblab chiqarish va chizmani chizish ancha qiyin. Kiyim detallarini hisoblash va chizma tayyorlashning quyidagi mavjud usullaridan foydalanish mumkin:

1. Mulyaj usuli; 2. Hisoblab loyihalash usuli; 3. O'lchab-hisoblab loyihalash usuli; 4. Yagona loyihalash usuli.

M u l y a j - usulining mohiyati shundan iboratki, maneken yoki kishi gavdasiga maket material (gazlama, engil-yumshoq kog'oz yoki to'rkanva) modelning formasiga moslab, to'g'nag'ichlar bilan qadab chiqiladi. To'g'nag'ichlar odam gavdasining konstruktiv chiziqlari bo'ylab (bo'yin, elka, eng o'yindisi, yon bel, o'rta chiziqlar) to'g'nag'ichlanadi. So'ngra rangli ipda to'g'nalgan joylardan tikib chiqiladi. Shunda ko'krak do'ngligini aniqlovchi ko'krak vitochkasi ikki tomonlama tikiladi. So'ngra to'g'nag'ichlar bo'shatilib, gazlama yoki kog'ozni stol ustiga yoyiladi. Bu hosil bo'lgan chizma gavdaning asos chizmasi hisoblanadi. Bu usuldan murakkab bichimli kiyimlarni loyihalashda va ko'pgina saxna kiyimlarini, tarixiy kiyimlarni loyihalashda qo'llaniladi.

H i s o b l a b l o y i h a l a s h usuli. XIX asrning boshlarida Frantsiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda loyihalashning hisoblash (bichish tizimi) usuli

tarqala boshlandi. Bu usulni ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bichuvchilar ixtiro qilganlar. Ular gavdadan ayrim o'lchovlarni olib, sodda hisoblash formulalari yordamida buyum detallari chizmasini gazlamaning o'zida bajaradilar, ya'ni alohida andoza tayyorlab o'tirmaydilar. Bu usul yakka tartibda buyum ishlab chiqarishda qo'llanilgan.

O'lchab – hisoblab loyihalash usuli. Kiyimni yakka buyurtma yo'li bilan tikishda o'lchab-hisoblab loyihalash usuli juda mos keladi, chunki bu usulda gavdani aniq o'lchangani tufayli gavdaning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda o'lchab-hisoblab loyihalash usullari bo'yicha kiyim detallari chizmasini tuzish keng tarqalgandir. Bu usulda gavdadan kerakli o'lchovlar olinadi, hisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buyumning asos chizmasi chiziladi. Bu usuldan maktablarda, o'quv muassasalarida, to'garaklarda qo'llaniladi. Bu usulning bir necha o'nlab turlari mavjud. Chizma chizishni, andoza tayyorlashni o'rganayotgan kishilar uchun bu usul qulay hisoblanadi.


Yagona loyihalash usuli. Mamlakatimiz va o'zaro iqtisodiy yordam kengashi (UIYOK) a'zolari bo'lgan mamlakatlar tikuvchilik sanoatlarida kiyimni loyihalash usullarini takomillashtirish ustida ishlab, loyihalashning yagona usulini ishlab chiqqanlar. Bu usul boshqa usullardan universalligi bilan ham farq qiladi, chunki har qanday bichimdagi va ko'rinishdagi kiyimlar loyahasini tuzishda baza loyihalar asos qilib olinadi. Bu usulni yaratish jarayonida aholining antropometrik o'lchovlari asosida standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartlar ayollar, erkaklar va bolalar assortimentlari uchun alohida-alohida ishlab chiqilgan. Bu usuldan tikuvchilik korxonalarini foydalanadi. Korxonadagi loyihachilar standartlarda berilgan loyihalash usuli o'lchovlardan foydalanib, buyum assortimentiga qarab, buyumning asos chizmasini loyihalaydilar, modellashtirib, buyum andozasini hosil qiladilar. Bu andozalardan foydalanib, tikilgan buyumlar aholining buyumga bo'lgan ehtiyojini 80-85% ga qondiradi. Bu usulda loyihalash jarayonida turli razmer (o'lcham) larga, rost (bo'y) larga, to'lalikka moslab andozalar tayyorlanadi.

**II.2. KIYIM ASOS KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH UCHUN
BIRLAMCHI MA'LUMOTLAR
Odam tanasining asosiy o'lchamlari**

Jadval -3

№	O'lcham belgisining nomi	Shartli belgi	Qiymati, sm
1.	Bo'yin aylanasi	BnA	28
2.	Ko'krak aylanasi	KA	60
3.	Yelka kengligi	YelK	8,5
4.	Orqa kengligi	OrK	12,5
5.	Old kengligi	OIK	11
6.	Ko'krak markazi	KM	6,5
7.	Ko'ylak uzunligi	KU	50
8.	Yeng uzunligi	YeU	38
9.	Yelka aylanasi	YelA	18
10.	Yeng o'mizi chizig'i	Yeo'Ch	14,5
11.	Yelkadan qo'ltiq aylanasi	YelQ	20
12.	Ort bo'lak uzunligi	OrbU	28
13.	Old bo'lak uzunligi	OlbU	27

II.3. Kiyim asos konstruksiyasini qurish



Yeng chizmasi

II.4. Model konstruksiyasini ishlab chiqish.

Asos konstruksiyasini qurish uchun qo'shimchalar

Jadval-4

№	Qo'shimchalar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1.	Qo'shimcha ko'rsatkichi	QK	6
2.	Ort kengligiga	OrK	1,5
3.	Old kengligiga	OIK	1
4.	Yeng o'miziga	YenO'	3,5
5.	Yeng o'mizi chizig'i	Yeno'Ch	1,5-2
6.	Yelkaga	Yel	5-6

ANDOZALARDAGI NAZORAT KERTIKLARI

Jadval-5

№	Detallar va kesimlar nomi	Kertiklarning joylashgan kertiqlari
1.	Ort etak qismi	
2.	Old etak qismi	
3.	Ko'ylakning yengi	
4.	Old bo'lak koketkasi	
5.	Ort bo'lak koketkasi	
6.	Ko'ylak yoqasi	

**Standart odam tanasi uchun berilgan kiyim assortimenti bo'yicha
asos konstruksiyasini hisoblash**

Jadval-6

№	Hisoblash formula	Hisob	Natija
Ko'ylakning to'r qismi			
1.	$B_n B_l$	$B_n B_l = OrbU$	28
2.	$B_n K$	$B_n K = Yeo'Ch + Qyeo'Ch$	16,5
3.	$B_n E$	$B_n E = KU$	50
4.	KK_1	$KK_1 = KYaA + QK$	36
5.	$Bl_1 B_{n1}$	$Bl_1 B_{n1} = OlbU$	27
6.	KK_2	$KK_2 = OrK + QOrK$	14
7.	$K_2 K_3$	$K_2 K_3 = YelA : 3 + Qyeo'$	9
8.	$K_3 K_1$	$K_3 K_1 = OIK + QOIK$	12,5
9.	$K_2 K_4$	$K_2 K_4 = K_2 K_3 : 2$	4,5
Ko'ylakning ort bo'lagi			
1.	$B_n B_{n2}$	$B_n YaA : 3 + 1$	5,5
2.	$B_n B_{n3}$	$B_n B_{n2} : 3$	2
3.	$BlYe$	$BlYe = YelQ$	28
4.	$B_{n2} Ye_1$	$YelK + 1,5$	10
5.	$B_{n2} v$	$B_{n2} v$	3
6.	vv_2	vv_2	1,5
7.	$K_2 b$	$K_2 b = K_2 Ye : 2$	
8.	$K_2 O$	$K_2 O$	2,5
9.	$Bl_2 Bl_3$	$Bl_2 Bl_3$	1
Ko'ylakning old bo'lagi			
1.	$Bl_1 Bl_4$	$Bl_1 Bl_4$	1
2.	$Bl_4 Bl_5$	$Bl_4 Bl_6 = B_n B_{n2}$	5,5
3.	$B_{n5} Ye_3$	$B_{n5} Ye_3 = YelK$	8,5
4.	$K_3 O_1$	$K_3 O_1$	2

2.4. MODEL KONSTRUKTSIYASINI ISHLAB CHIQISH

Moda – turmushning tashqi ko'rinishida, ko'proq kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir.

V.Dal

Moda – bu zamonaviy degani. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos keladi. Moda insonning turmush madaniyati estetikasini olg'a etaklab boradi. U zamonaviylik nuqtai-nazaridan eng ma'qul echimlarni tanlab oladi. Moda – bu yangilanish.

Moda bilan uslub o'rtasidagi farq zamirida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning o'tmishiga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o'zaro bog'liqligi aks etadi.

Modellashtirishning maqsadi – o'z san'ati, qudrati bilan jamiyatni estetik tarbiyalash, madaniyatni yuqori pog'onalarga ko'rishdir.

Modellash – bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining konstruktsiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagi modalar konstruktsiyasini tuzmoqchi bo'lgan asosiy konstruktsiya bazasidan olish mumkin. Bu jarayon amaliy modellash yoki, odatda aytilishiga binoan, texnik modellash deb ataladi.

Texnik modellash konstruktsiya asosini yangi model konstruktsiyasiga aylantirishdan iborat.

Modelning fasoni modellar jurnalidan olinadi yoki ijrochining rasm chizib ko'rsatgan taklifiga ko'ra tanlanadi.

Kiyimning modelga xos xususiyatlari, ya'ni vitochkalar, koketkalar, bo'rtma choklarning holati; bo'ksa, bel, etak, bort, taqilma chiziqlari; cho'ntaklar, yoqa, burma chiziqlari tegishli detallar konstruktsiyasi asosining chizmasiga ko'chiriladi.

Model chiziqlarining hammasini konstruktsiya asosining chizmasida xuddi model rasmidagidek joylashtirish kerak.

Ishlash uchun hamma asosiy detallar konstruktsiyasining baza bo'ladigan asosini qog'oz yoki karton andoza – shablon tarzida tayyorlab olinadi. Bu andozalarga zarur bo'lgan simmetriya chiziqlari – ko'krak chizig'i, bel chizig'i, bo'ksa chizig'i tushiriladi.

Har qanday buyumni tikishda, ya'ni uni bichishda unga texnologik ishlov berishga ko'rishdan oldin birinchidan, uning badiiy loyihasini, sodda qilib aytganda, eskizini yaratish kerak – bu bosqichga badiiy modellashtirish deyiladi. Ikkinchidan, asosiy konstruktsiyasini, ya'ni asosini hisoblash va chizish kerak, buni konstruktsiyalash deyiladi. Uchinchidan, hisoblashlar va maket yasash yo'li bilan taxlamalarni, burmalar, koketkalar, cho'ntaklar, qirqmalarni va hokazolarni ishlab chiqish kerak, bunga texnik modellashtirish deyiladi.

Standartlar ayollar, erkaklar va bolalar assortimentlari uchun alohida ishlab chiqilgan. Bu usuldan asosan tikuvchilik korxonalarida foydalaniladi. Korxonalaridagi loyihachilar standartlarga berilgan loyihalash o'lchamlaridan foydalanib, buyum assortimentiga qarab, asos chizmasini loyihalaydilar.

2.5. Yangi modelning asosiy andazalarini qurish

Tikuvchilikda kiyim detallari andaza bo'yicha bichiladi. Andaza tayyorlashdan oldin kiyim detallarining chizmasida vitochkalar, yon chiziq shim va boshqa detallar chiziqlarining barcha o'tmas burchaklari ularning uchiga mumkin qadar yaqinroqdan dumaloqlanadi. So'ngra kiyim orqasi va oldi detallarining, engning ustki va ostki yarmisining, shimning old yarmi bilan orqa yarmi juftlashtirilib bir-biriga o'langan zihlarining o'zaro mos kelishi tekshiriladi, bunda konstruktiv chiziqlaridan arzimagan darajadagina chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. SHu tarzda aniqlangan chizmalarda choklarga hamda kiyim etagiga, eng uchi, shim-ko'ylak pochasisiga yubka etaklariga bukish uchun qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvofiq chok haqi belgilanadi.

Andozalar tayyorlash usuliga qarab, asosiy andoza, ikkilamchi (hosila) andoza va yordamchi andoza degan turlarga ajratiladi, bajaradigan vazifasiga qarab esa, etalon-andoza (originallar), ish andozasi va yordamchi andoza kabi xillarga ajratiladi.

E t a l o n - a n d o z a l a r ish andazalarini tekshirish uchun kontrol vosita sifatida xizmat qiladi. Ular eksperimental tsexlarda saqlanadi va original-chizmalar yoki o'lchovlar tabeli bo'yicha kamida kvartalda bir marta tekshirib ko'riladi.

I s h a n d o z a l a r i d a n bevosita texnologik jarayonlarda (kiyim bichish, bichiqlarni tekshirish va hokazolar vaqtida) foydalaniladi. Bu andozalar oyiga kamida bir marta etalon andozalar bo'yicha tekshiriladi. Kesilgan joylardagi chetga chiqishlar normativ-texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi. Odatda ish andozalari 3-5 komplekt qilib tayyorlanadi.

Y o r d a m c h i a n d o z a l a r kiyimning qayirib bukish chiziqlari, kesib tashlanadigan joylari, cho'ntaklar, izmalar, tugmalar va hokazolar o'rnini qo'shimcha ravishda belgilash uchun xizmat qiladi.

A s o s i y a n d o z a l a r kiyim konstruktsiyasining chizmasi bo'yicha tayyorlanadi; bu andozalarda chok haqi, kiyim etaklarini qayirib bukish, ortiqcha joylarni kesib tashlash haqlari albatta hisobga olingan bo'ladi. Kiyimning orqasi, oldi, englari, yon chiziqlariga, yubkaning, shimning old va orqa yarmiga qo'shib

beriladigan chok haqi «Tikilgan kiyimlar, qaviqlar, baxyalar va choklar» davlat standartiga muvofiq belgilanadi.

Aholining shaxsiy buyurtmasiga muvofiq kiyim tikishda asosiy loyiha andozalardan foydalaniladi. Asosiy loyiha andozasini tayyorlagan vaqtda chok haqi berilmaydi. Kiyimni bichganda tegishli joylarda chok haqi tashlab ketiladi, bu esa kiyim balansini yaxshilash maqsadida unga birmuncha o'zgartirish kiritishga va kompozitsion echimlarga imkon tug'diradi.

ANDAZALARDA BERILGAN CHOK HAQLARI

Jadval-7

Qo'shimcha qiymati va nomi, sm.						
№	Detal va kesim nomi	Biriktirma chok	Mag'iz chok	Ko'klab qo'yish	Qirqish ga	Qirqish va kesishga
1.Old bo'lak						
1.	Elka qirqim	1,5				
2.	Eng o'mizi	1,0				
3.	Yon qirqimi	1,2-2				
4.	Yoqa o'mizi	1				
5.	Etak qirqimi	1				
2.Ort bo'lak						
1.	Elka qirqim	1,5				
2.	Eng o'mizi	1,0				
3.	Yon qirqimi	1,5-2				
4.	Yoqa o'mizi	1				
5.	Etak qirqimi	1				
3.Old yon bo'lak						
1.	Eng o'mizi	1				
2.	Yon qirqimi	1,5-2				
3.	Etak qirqimi	1				
4.	Rel'ef choki	1				
4.Ort yon bo'lak						
1.	Eng o'mizi	1				
2.	Yon qirqimi	1,5-2				
3.	Etak qirqimi	1				
4.	Rel'ef choki	1				
5.Eng						
1.	Eng qiyamasi	1,5				
2.	Eng uchi qirqimi	1,0				
3.	Eng detallarini qirqimi	1,0				
6.Yoqa						
1.	Yoqa uchi qirqimi	1,5				
2.	Yoqa detallari qirqimi	1,0				
7.Adip						
1.	Bo'yin o'miz qiyamasi	1,0				

MODEL ASOSIY DETALLARI SPETSIFIKATSIYASI

Jadval-8

№	Kiyim detallarining nomi	Detal kodi	Soni	
			Andazada	Bichiqda
1.	Ko'ylak old bo'lagi	01	1	1
2.	Ko'ylak ort bo'lagi	02	1	2
3.	Eng	03	1	2
4.	Yoqa	02	1	2
4.	Adip	04	1	1

2.6. MODEL ANDAZALARINI MATERIALGA JOYLASHTIRISH VA MATERIAL SARFINI ANIQLASH

Andozalarni gazlama ustiga qo'yish hamda kiyimni bichish texnik talablarga muvofiq bajarilishi lozim.

Tukli gazlamalar, shuningdek, har xil tUSDagi gazlamalardan kiyim bichish vaqtida asosiy gazlamadan tikiladigan detallarning barcha andozalari (adip va ostki yoqalar bundan mustasno) bir tomonga qaratilishi kerak. Kiyim duxoba, baxmal, nimbaxmal, chiyduxobadan bichilayotganda andozani gazlama tuki pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak. SHunda tayyor kiyimning materiali yaltirab turmaydi. Gullari har tomonga qaratilgan gazlamalarda andozalarni gazlama gullari pastdan yuqoriga yoki, aksincha, yuqoridan pastga qarab turadigan qilib joylash tavsiya etiladi.

Bayka, flanel', movut (drap, sukno) kabi tukli materiallar, paxta ipi, melanj ipdan to'qilgan materiallardan, zamsha va chiyduxobadan kiyim bichishda andozalarni tuklar pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak, shunda kiyimning materiali ortiqcha paxmoqlanmaydi. Umuman, andozaning joylanishi material tukining uzun-qisqaligi va mayin-dag'alligiga bog'liq. Xullas, uzun tukli materialda tuklar yuqoridan pastga, qisqa tukli materiallarda pastdan yuqoriga yo'nalgan bo'ladi.

Tuklari ko'zga arang chalinadigan materialdan tikiladigan kiyimni bichganda hamma detallarda material tuklarining bir yo'nalishda joylashgan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Agar gazlama ustiga ikkita kiyimning andozalarini bir yo'la joylashtirishga to'g'ri kelsa, u holda bir kiyimning jami detallarida gazlama tuklari bir tomonga, ikkinchi komplektda esa boshqa tomonga qaratilishi lozim.

Sidirg'a rang, yo'l-yo'l yoki katak (tuksiz) gazlamadan kiyim bichishda (agar kataklar, gullar simmetrik joylashgan bo'lsa) detallarning andazalarini qarama-qarshi yo'nalishda joylashga yo'l qo'yiladi. Gullari nosimmetrik, shuningdek, ma'lum yo'nalishda joylashgan gazlamada bir kiyimning hamma detallari andozasi bir tomonga qaratib qo'yiladi.

Xol-xol gulli (xollar yirik bo'lsa) yoki yo'l-yo'l gazlamadan kiyim bichishda va tikishda kiyim orqasi va oldining o'rta chizig'i gulning qoq o'rtasiga to'g'ri keltirilishi lozim.

Yo'l-yo'l va katak gazlama ustiga andozalarni joylayotganda ayrim detallarning chetlaridagi, chunonchi: kiyimning oldida – bortlar chetidagi, kiyim orqasida – o'rta chiziqdagi, bort adiplarida – yoqa qaytarmalarining tashqi zihlaridagi, cho'ntaklar, cho'ntak qopqoqlari, yoqa, old va orqa koketkalaridagi (skladka yoki vitachkagacha) yo'llarning yoxud kataklarning bir-biriga mos holda to'g'ri keltirilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kiyimning mazkur detallarini bichayotganda gazlamaning gullarini bir-biriga to'g'ri keltirish uchun undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi tashlab ketiladi. Kiyimning orqasi (chokli bo'lgan hollarda) va bort adiplarini bichayotganda chok haqi tashlab ketilmaydi, balki bu detallar gazlamaning chetiga yaqinroq joylashtiriladi. Gazlamaning takrorlanadigan gullari yirik bo'lganda ham shunday talablar qo'yiladi.

Andozalarni gazlama ustiga joylashning bir necha varianti mavjud. Lekin asosiy qoida quyidagidan iborat. Yirik detallarning andozalarini joylashda ularning to'g'ri chizikli (yoki shunga yaqin) chetlari joylash ramkasining chetiga taqab qo'yiladi, egri chizikli chetlari esa maydonchanning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi. Yirik andozalar orasiga maydaroqlari joylanadi, bunda yondosh andozalar chetlari bir-biriga tegib turishi lozim.

Yirik va o'rtacha kattalikdagi andozalarning chetlarini shunday juftlashtirish kerakki, ularning o'yiqlaridan hosil bo'lgan ochiq joylarga mayda andazalar sig'adigan bo'lsin.

Materialning qiymati tayyor kiyim tannarxining 80-90% ni tashkil etadi; shunga ko'ra kiyim bichishda materialni tejab-tergashning katta ahamiyati bor.

Material ustiga andozalarni joylashdagi tejamkorlik qiyqim chiqishiga qarab belgilanadi. Shu narsa ma'lumki, kiyimning asosiy detallari birin-ketin bo'yiga

joylashtirilsa yoki qiya zihlari bo'yicha juftlashtirilsa, andozalar oralig'idan juda oz qiyqim chiqadi.

Modelimiz uchun tanlangan atlas matomiz eni 75 sm, bo'yi 100 sm. Gazlamaga andazalarni joylashtirish uchun asosiy qoidalariga asoslangan holda joylashtiramiz. Katta detallarni gazlama chetiga, mayda detallarni esa gazlama o'rtasiga naqshlarini to'g'ri tanlab joylashtiramiz.

III. KURS LOYIHASINING TEXNOLOGIK QISMI

3.1. Modelning texnologik ketma-ketligini ishlab chiqish

Kurs loyihasining mazkur qismida bajarilgan ishlarning texnologik ketma-ketligi jadval ko'rinishida bayon etiladi. Ushbu ketma-ketlikdan quyidagilarni bilib olishimiz mumkin.

-modelning tayyorlash uchun foydalanilgan materiallar; -modelni tikish uchun foydalanilgan choklar ketma-ketligi; -foydalanilgan mashinalar turi; -modelni tayyorlash jarayonida uni dazmollash (ishlov berish) turlari. Kam vaqt sarflab, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni zamonaviy va o'ta unumdor jihozlar ta'minlaydi.

Tayyorlov sexlarida to'qimachilik korxonalaridan keltirilgan gazlamalar birlamchi tekshiruvdan o'tkaziladi, ya'ni eni, umumiy uzunligi, artikuli, navi va sifati tekshiriladi. Shuningdek, bunda materiallar qabul qilinadi, tashiladi, o'lchanib, nuqsonlari topiladi va saqlash joylariga joylanadi. Bunda tikuv korxonalariga material o'ramlar va toylar holida keltiriladi. Avtomobildan ularni elektr tal yoki avtoyuklatgich yordamida olinib, temir izlarda yuruvchi aravachalarda sexlarga olib boriladi. Agar materiallar konteynersiz keltirilgan bo'lsa, ular konveyerlar yoki qiya nov yordamida avtomobildan tushirib olinadi. Materiallar taxlanib joylarda yoki elevator va barabanlarda saqlanadi.

Tayyorlov sexida ko'pincha TSHP-89 taxlagichidan foydalaniladi; bu taxlagich aravachadagi material o'ramlarini, bichiq qavatlarini quticha yoki qavatlardagi buyumlarni ko'p qavatli tokchali joylarga joylab yakka-yakka saqlash joyiga tashib borishga va ularni boshqa transportga ortib berishga moslashgan.

Tikuv mashinalarining turlari. Ular bajaruvchi jarayonlariga qarab: keng imkoniyatli (1022-M, 97-A, 8332, 597, 302, 862), maxsus (26, 75, 335, 51-A, 85, 285), yarim avtomat (25, 27, 95, 220, 295, 495, 558, 62-761), uzellarni ishlovchi yarim avtomat (260, 360, 590) mashinalarga bo'linadi.

Mashinalar bajarayotgan bahyaqator va chok turiga qarab: moki bahya qatorli (tikuvchi bir, ikki, uch va to'rt ignali, yashirin - ko'rinmas bahyali, maxsus chokli va yarim avtomat), bir ipli zanjirli bahyaqatorli (tikuvchi, va vaqtinchalik birlashtiruvchi, ko'p ignali, kashta tikuvchi - popop, yashirin bahyali), ko'p ipli

zanjirli bahya hosil qilib tikuvchi (bir, ikki va ko'p ipli birlashtiruvchi, buyumlar ziyini yo'rmalovchi, maxsus va yarim avtomatlar) kabi mashinalarga bo'linadi.

Bundan tashqari tikilib bo'lgan buyum va ularni detallariga issiqlik va namlik bilan ishlov beruvchi presslar yuritgichini turi, bajarayotgan jarayonni amalga oshirishi va issiqlikni tashuvchisi turiga qarab: dazmollash presslari, eguvchi maxsus presslar, parlovchi presslar, qo'l yoki pedal bilan boshqariluvchi, elektromexanik, gidravlik, pnevmatik hamda par yoki elektr bilan isituvchi presslarga bo'linadilar.

TANLANGAN JIHOZLAR BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Jadval-9

Jihoz nomi	CHok turi	Bosh.m max.aylanasi	Baxya uzunligi	Gazlama surgich	Tikilayotgan materialning qalinligi, mm	60 st 22249-82 bo'yicha igna	Ip turi	Qo'shimcha ma'lumotlar
DDL-555 YUKI YAponiya	Moki baxyaqator	5500	4	90	2	90	50	Materialni orqaga surish, ipni uzish
698892 RE-2 PRAFF Germaniya	Moki baxyaqator	4500	4	-90	2	90	50	Tepkini ko'tarish, uni qirqish
VR30-120 kl Italiya	Ipli- zanjirli	7000	-	Defferentsiya tishli reyka	2	90	50	Ip uzunligi nazorat qilish
251 kl Germaniya	Bir ipli zanjir	300	3-8	Yuqori tishli reyka	2	90	50	Baxyani tashlab tikish uchun universal qurilmasi
Mch-6814 kl YAponiya	Ipli mokili izma yo'rmash	3300	-	Plastina tipli	2	90	50	Ustki va ostki iplarni qirqish
VK-981- 555 kl YUKI YAponiya	Bir ipli zanjir	2000	-	Plastina tipli	2	90	50	Tugma tutkich orqali avtomatik uzatish

KIYIM TIKISH TEXNOLOGIK KETMA-KETLIGI

Jadval-10

№	Operatsiya nomi	CHok sxemasi	Ixtisoslik	Jihoz, moslama
Old bo'lakka ishlov berish				
1.	Old bo'lak rel'ef qirqimlarini biriktirib tikish		UM	DDL-555
2.	Old bo'lak rel'ef qirqimlarini yo'rmalash		M	
3.	Old bo'lak rel'ef choklarini yurib dazmollash		D	T-23
Ort bo'lakka ishlov berish				
1.	Ort bo'lak o'rta qirqimlarini biriktirib tikish		UM	DDL-555
2.	Ort bo'lak o'rta chokini yorib dazmollash		D	T-23
3.	Ort bo'lak taxlamalarini biriktirib tikish		UM	DDL-555
4.	Ort bo'lakni dazmollash		D	T-23
Engga ishlov berish				
1.	Engni yon qirqimlarini biriktirib tikish		UM	DDL-555
2.	Eng yon chokini yorib dazmollash		D	T-23
3.	Engni o'ngiga ag'darish		K	K
4.	Eng bo'kish haqini belgilash		K	mm.andaza
5.	Bo'kish haqini dazmollash		D	T-23
6.	Eng bo'kish haqlarini bo'kib tikish		UM	DDL-555
Yoqa va yoqa o'miziga ishlov berish				
1.	Yoqa astariga qotirmani yopishtirish		D	T-23
2.	Yoqa o'miziga adirni biriktirib tikish		UM	DDL-555
3.	Adip biriktirilgan ag'darma chokni yorib dazmollash		D	T-23
4.	Bezак baxyaqator yuritish		UM	DDL-555

XULOSA

Modadagi yangi yo'nalish odatda maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagida sinovdan o'tkazib ma'qullanadi. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylaklari qiz bolalarga yarashadigan, chiroyliligi, zamonaviy moda xosligi, uning eng yaxshi xususiyatlarini ko'zga ko'rintiradigan bo'lishi kerak, deb xulosaladim.

Kurs loyihaning xulosa qismida quyidagilarni keltiraman:

1. Model zamonaviy moda yo'nalishiga mosligi, poplin gazlamadan foydalanib, bezak toshlar ishlatilganligi iste'molchilarni didlarini qondirish bilan ajralib turadi.
2. Model gazlamasi tabiiy paxta tolali iplardan to'qilgan, kiyim old bo'laklari taxlamalardan iborat. Bu ko'ylagimizda ham bezaklar mavjud.
3. Tanlangan model bo'yicha va olingan o'lcham asosida konstruktsiya ishlab chiqildi.
4. Modellashtirish jarayonini qismiga modelning ayrim qismlariga o'zgartirishlar kiritiladi.
5. Kiyim detallarga andaza tayyorlashda chizmasidagi vitochkalar, yon chiziq boshqa joylar alohida e'tiborga olinadi va gazlamaga joylashtirishda tejamkorlikda foydalanish kerak.

Texnologik jarayonlarni loyihalashda men zamonaviy asbob - uskunalardan ya'ni, dunyodagi yetakchi hisoblangan Germaniya davlatining PFAFF, MAIER tikuv mashinalaridan va Italiyaning ROTONDI press va dazmollaridan foydalangan holda tuzdim.

Ushbu firmalarning asbob-uskunalarni tanlashimdan asosiy sabab shundaki, bu korxonalar ishlab chiqarayotgan asbob-uskunalar hozirgi jahon inovatsiyalariga asoslangan holda yaratilganligi bilan bir qatorda ekspluatatsion talablarga to'liq javob berib, mahsulotlarni sifat darajasini dunyo standartlariga mos ravishda ishlab chiqarish imkonini beradi. O'zidan-o'zi ko'rinib turibdiki, ushbu texnologiyalar va uskunalar orqali yaratilgan mahsulot bozorda raqobatbardosh bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, kurs loyiha ishini bajarish davrida men bilimimni yanada mustahkamlab, o'zimga kerakli bo'lgan muhim ma'lumotlarga ega bo'ldim va bu menga kelajakda katta yutuqlarga erishish uchun poydevor bo'lishiga aminman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: O'zbekiston. 2011 yil.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008 yil.
3. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". 2009 yilning asosiy yakunlari va 2009 yilda O'zbekistonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim va ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston. 2010 yil.
4. Abdullaeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 yil.
5. Hasanbaeva G.K. «Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash». T.: O'qituvchi. 1990 yil.
6. Lin Jak. Texnika kroya. M.: 1986 g.
7. Rogova A.P. "Erkaklar va bolalar ustki kiyimini konstruksiyalash asoslari". T.: O'qituvchi. 1988 yil.
8. Eryomenka T.I. "Sehrlig'na". T.: O'qituvchi. 1990 yil.
9. Chijikova L.P. «Krujok konstruirovaniya i modelirovaniya odejdi». M.: "Prosveshenie". 1990 g.
10. «Uy-ro'zg'or entsiklopediyasi». O'zbek sovet entsiklopediyasi bosh redaksiyasi. T.: 1982 yil.
11. Koketkina P.P. «Spravochnik po konstruirovaniyu odejdi». M.: "Legkaya i pishevaya promishlennost'". 1982 g.
12. www.vse.uz.
13. www.yahoo.ru.
14. www.osinka.ru.
15. Ziyonet axborot tarmog'i (www.ziyonet.uz).